

TUMAN HUDUDLARIDAGI BAYRAM SHUKUHI



Istiqlolimizning 31-yillik to'yini munosib kutib olish maqsadida tumanimizning barcha hududlarida turli ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar, davra so'hatlari va uchrashuvlar tashkil etilib, o'tkazilmoqda. O'tkazilayotgan tadbirlarda istiqolning 31-yillik ta'rixi davomida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sarhisob qilinib, istiqolning xalqimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati yorqin misollar bilan tadbir ishtirokchilariga yetkazilmoqda.

Tul mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib o'tgan bayram tadbiri "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" shiori ostida bo'lib o'tdi. Bayramga bag'ishlangan tadbirda mahalla ahli, asosan yoshlar ishtirok etishdi.

 Sahna uzra yangragan ko'y-qo'shiqlarda Vatan, istiqol, tinchlik va osoyishtalik tarannum etildi. So'zga chiqqanlar istiqolning xalqimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida gapirib, tumanda bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa, davlatimiz rahbari e'tibori asosida mahallada bo'lgan va bo'layotgan o'zgarishlar haqida fikrlar bildirdilar.

Bayram tadbirida yosh avlod - jaji bolajonlar xursandchilik qilishdi. Mahallada obodonlashtirish ishlarini yanada kuchaytirishga doir chora va tadbirlar rejasi belgilab olindi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-27 16:57:30